



XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA VILOYATI DANG'ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2022 - yil 30 - dekabr

VI-67-201-11-155-K/22

Dang'ara tuman hokimligi

Dang'ara tumani bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo'yicha, mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-Farmonining 4-bandiga muvofiq, viloyat moliya bosh boshqarmasi va davlat soliq boshqarmasining "qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar" loyihasi bo'yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, bildirilgan fikr mulohazalarni inobatga olgan holda, xalq deputatlari tuman Kengashi, **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9-dekabrda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo'llash bo'yicha 06/04-34/4103-xdfu-sonli xatiga ko'ra, quyidagilar:

-yer solig'ining amaldagi soliq stavkalari 2023-yilda 1,1 barobarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

-Dang'ara tumani uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yuridik shaxslarga 1 (ga) yer maydoni uchun 26 070 ming (yigirma olti million yetmish ming) so'm va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 249,0 (ikki yuz qirq to'qqiz) so'm bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko'zda tutilganligi;

-kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo'llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo'yicha tavsiyalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlarini belgilash bo'yicha tuman moliya bo'limining hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasining qo'shma taklifi

ma'qullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

Dang'ara tumani hududida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq, Dang'ara tumani hududida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda,

-Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 barobaridan oshmasligi lozimligi;

-tuman Xalq deputatlari Kengashiga viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko'rsatib o'tilsin.

4. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Shamsiddinov) yer solig'i bo'yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to'lovchilarga soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta'minlasin.

5. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Shamsiddinov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

-soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda o'z vaqtida budjetga undirilishini nazoratga olib borish;

-tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlash;

-yer solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (U.Usmonov), «Dang'ara» gazetasi (O'.Akbarova)lar 2023-yil soliq davrida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlarni soliq stavkalarini yangi miqdori belgilanganligi to'g'risida tuman aholisiga OAV da e'lon qilish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



Sh.Tojixakimov

Xalq deputatlari Dang'ara
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-67-201-11-155-K/22-son
qaroriga
1-ilova

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha
mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan
kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar.**

ming so'mda.

| T/r | Shahar va tuman nomi | MFY lar nomi | Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha) | Yer solig'i stavkasi 2023 yil uchun (1 ga uchun) |
|-----|----------------------|-----------------|----------------------------------|---|
| 1 | Dangara t | Uvaysiy MFY | 1,08 | 28 156 |
| 2 | Dangara t | Pishqaron MFY | 1,08 | 28 156 |
| 3 | Dangara t | Navbaxor MFY | 1,08 | 28 156 |
| 4 | Dang'ara t | Chinobod MFY | 1,00 | 26 070 |
| 5 | Dang'ara t | G'umoyli MFY | 1,08 | 28 156 |
| 6 | Dang'ara t | Chodakilik MFY | 1,08 | 28 156 |
| 7 | Dang'ara t | Oltiqo'sh MFY | 1,08 | 28 156 |
| 8 | Dang'ara t | Qora ko'rpa MFY | 1,00 | 26 070 |
| 9 | Dang'ara t | Teliming MFY | 1,00 | 26 070 |
| 10 | Dang'ara t | Naymancha MFY | 1,00 | 26 070 |
| 11 | Dang'ara t | Tangriqul MFY | 1,08 | 28 156 |
| 12 | Dang'ara t | Minglar MFY | 1,00 | 26 070 |
| 13 | Dang'ara t | Aravon MFY | 1,00 | 26 070 |
| 14 | Dang'ara t | Qashqar MFY | 1,00 | 26 070 |
| 15 | Dang'ara t | Targ'ova MFY | 1,00 | 26 070 |
| 16 | Dang'ara t | Raxmatillo MFY | 1,00 | 26 070 |
| 17 | Dang'ara t | Boybo'ta MFY | 1,00 | 26 070 |
| 18 | Dang'ara t | Tumor MFY | 1,00 | 26 070 |
| 19 | Dang'ara t | Qum Qiyali MFY | 1,00 | 26 070 |
| 20 | Dang'ara t | Kiyali MFY | 1,00 | 26 070 |
| 21 | Dang'ara t | Istiqlol MFY | 1,00 | 26 070 |

| | | | | |
|----|------------|------------------------|------|--------|
| 22 | Dang'ara t | Taypoq MFY | 1,00 | 26 070 |
| 23 | Dang'ara t | Uymovut MFY | 1,00 | 26 070 |
| 24 | Dang'ara t | G'alaba MFY | 1,00 | 26 070 |
| 25 | Dang'ara t | Arziktepa MFY | 1,00 | 26 070 |
| 26 | Dang'ara t | Yangizamon MFY | 1,00 | 26 070 |
| 27 | Dang'ara t | Qizilmusht MFY | 1,00 | 26 070 |
| 28 | Dang'ara t | Katta Amirobod MFY | 1,00 | 26 070 |
| 29 | Dang'ara t | Sanam MFY | 1,00 | 26 070 |
| 30 | Dang'ara t | To'laboy MFY | 1,08 | 28 156 |
| 31 | Dang'ara t | Katta Ganjiravon MFY | 1,08 | 28 156 |
| 32 | Dang'ara t | Mang'it MFY | 1,08 | 28 156 |
| 33 | Dang'ara t | Soy shildir MFY | 1,00 | 26 070 |
| 34 | Dang'ara t | Oqtepa MFY | 1,00 | 26 070 |
| 35 | Dang'ara t | Shopo'lat MFY | 1,00 | 26 070 |
| 36 | Dang'ara t | Katta boybucha MFY | 1,00 | 26 070 |
| 37 | Dang'ara t | Qiyali qo'rg'oncha MFY | 1,00 | 26 070 |
| 38 | Dang'ara t | Yashik MFY | 1,00 | 26 070 |
| 39 | Dang'ara t | Bo'riqum MFY | 1,00 | 26 070 |
| 40 | Dang'ara t | Qora mulla MFY | 1,00 | 26 070 |
| 41 | Dang'ara t | Urganji MFY | 1,00 | 26 070 |
| 42 | Dang'ara t | Oqjar MFY | 1,00 | 26 070 |
| 43 | Dang'ara t | Taptiqsaroy MFY | 1,00 | 26 070 |
| 44 | Dang'ara t | Kapasaroy MFY | 1,00 | 26 070 |
| 45 | Dang'ara t | Abdusamad MFY | 1,00 | 26 070 |
| 46 | Dang'ara t | Doimobod MFY | 1,00 | 26 070 |
| 47 | Dang'ara t | Bog'ish MFY | 1,00 | 26 070 |
| 48 | Dang'ara t | Katta turk MFY | 1,00 | 26 070 |
| 49 | Dang'ara t | Kichik turk MFY | 1,00 | 26 070 |

Xalq deputatlari Dang'ara
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-67-201-11-155-K/22-son
qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar.

ming so'm.

| T/r | Shahar va tuman nomi | MFY lar nomi | Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha) | Yer solig'i stavkasi 2023-yil uchun (1 kv uchun) |
|-----|----------------------|-----------------|----------------------------------|--|
| 1 | Dang'ara t | Uvaysiy MFY | 1,15 | 286,0 |
| 2 | Dang'ara t | Pishqaron MFY | 1,15 | 286,0 |
| 3 | Dang'ara t | Navbaxor MFY | 1,15 | 286,0 |
| 4 | Dang'ara t | Chinobod MFY | 1,08 | 269,0 |
| 5 | Dang'ara t | G'umoyli MFY | 1,15 | 286,0 |
| 6 | Dang'ara t | Chodakilik MFY | 1,15 | 286,0 |
| 7 | Dang'ara t | Oltiqo'sh MFY | 1,10 | 274,0 |
| 8 | Dang'ara t | Qora ko'rpa MFY | 1,10 | 274,0 |
| 9 | Dang'ara t | Teliming MFY | 1,10 | 274,0 |
| 10 | Dang'ara t | Naymancha MFY | 1,10 | 274,0 |
| 11 | Dang'ara t | Tangriqul MFY | 1,10 | 274,0 |
| 12 | Dang'ara t | Minglar MFY | 1,10 | 274,0 |
| 13 | Dang'ara t | Aravon MFY | 1,10 | 274,0 |
| 14 | Dang'ara t | Qashqar MFY | 1,08 | 269,0 |
| 15 | Dang'ara t | Targ'ova MFY | 1,08 | 269,0 |
| 16 | Dang'ara t | Raxmatillo MFY | 1,10 | 274,0 |
| 17 | Dang'ara t | Boybo'ta MFY | 0,89 | 222,0 |
| 18 | Dang'ara t | Tumor MFY | 0,89 | 222,0 |
| 19 | Dang'ara t | Qum Qiyali MFY | 0,89 | 222,0 |
| 20 | Dang'ara t | Kiyali MFY | 0,91 | 227,0 |
| 21 | Dang'ara t | Istiqlol MFY | 0,89 | 222,0 |
| 22 | Dang'ara t | Taypoq MFY | 0,89 | 222,0 |

| | | | | |
|----|------------|------------------------|------|-------|
| 23 | Dang'ara t | Uymovut MFY | 0,89 | 222,0 |
| 24 | Dang'ara t | G'alaba MFY | 1,08 | 269,0 |
| 25 | Dang'ara t | Arziktepa MFY | 1,10 | 274,0 |
| 26 | Dang'ara t | Yangizamon MFY | 1,10 | 274,0 |
| 27 | Dang'ara t | Qizilmusht MFY | 1,10 | 274,0 |
| 28 | Dang'ara t | Katta Amirobod MFY | 1,10 | 274,0 |
| 29 | Dang'ara t | Sanam MFY | 1,10 | 274,0 |
| 30 | Dang'ara t | To'laboy MFY | 1,15 | 286,0 |
| 31 | Dang'ara t | Katta Ganjiravon MFY | 1,15 | 286,0 |
| 32 | Dang'ara t | Mang'it MFY | 1,15 | 286,0 |
| 33 | Dang'ara t | Soy-shildir MFY | 1,10 | 274,0 |
| 34 | Dang'ara t | Oqtepa MFY | 1,10 | 274,0 |
| 35 | Dang'ara t | Shopo'lat MFY | 1,10 | 274,0 |
| 36 | Dang'ara t | Katta boy-bucha MFY | 1,00 | 249,0 |
| 37 | Dang'ara t | Qiyali qo'rg'oncha MFY | 1,00 | 249,0 |
| 38 | Dang'ara t | Yashik MFY | 1,00 | 249,0 |
| 39 | Dang'ara t | Bo'riqum MFY | 1,00 | 249,0 |
| 40 | Dang'ara t | Qora mulla MFY | 0,89 | 222,0 |
| 41 | Dang'ara t | Urganji MFY | 0,89 | 222,0 |
| 42 | Dang'ara t | Oqjar MFY | 0,89 | 222,0 |
| 43 | Dang'ara t | Taptiqsaroy MFY | 0,89 | 222,0 |
| 44 | Dang'ara t | Kapasaroy MFY | 0,89 | 222,0 |
| 45 | Dang'ara t | Abdusamad MFY | 0,89 | 222,0 |
| 46 | Dang'ara t | Doimobod MFY | 0,89 | 222,0 |
| 47 | Dang'ara t | Bog'ish MFY | 0,89 | 222,0 |
| 48 | Dang'ara t | Katta turk MFY | 0,89 | 222,0 |
| 49 | Dang'ara t | Kichik turk MFY | 0,89 | 222,0 |